

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ
ВАЗИРЛИГИ
А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti
dekani

_____ dots. Rabbimov M.T.

«___» _____ 2014 y.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi

“MORFEMALARNING TURLARI”
mavzusida bajarilgan

KURS ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti IV
kurs talabasi Toshpo'latov Abbas

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____
(imzo) (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
, 2014 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____
(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2014

REJA

1. O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI

2. AFFIKSAL MORFEMA TUSHUNCHASI VA ULARNING TURLARI

3. AFFIKSAL MORFEMALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

1. O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI

Soʻz tarkibi tilshunoslikning alohida sohasi boʻlib, u soʻzning ma'noli qismlari haqida ma'lumot beradi. Bu boʻlim morfemika deb ham ataladi.

Soʻzning ma'noli qismlari morfema deyiladi. Morfema soʻzning eng kichik boʻlinmas ma'noli qismi boʻlib u 2 turga boʻlinadi.

1) oʻzak morfema;

2) affiksial morfema.

Oʻzak morfema soʻzda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalay oladigan morfemadir. Oʻzak morfema soʻz yasalishi uchun ham, soʻzning Biron-bir grammatik shakli yasalishi uchun ham asos boʻla oladi: **ishchi, ishchan, ishsiz** (**ish** soʻzi yangi soʻz yasalishi uchun asos boʻlyapti); **ishni, ishga, ishda, ishdan** (**ish** soʻzi kelishik shakli yasalishi uchun asos boʻlyapti).

Affiksial morfema mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, soʻzning leksik yoki grammatik ma'nolarning shaklanishida xizmat qiladigan morfemadir: **kuchli, harakatchan, ishla, doʻstona** (soʻz yasayapti); **uyalar, uyim, uyga** (shakl yasayapti).

Soʻz tarkibida affiksial morfema (ya'ni qoʻshimcha) har doim ishtirok etavermaydi. Masalan, **ish, odam, suv, havo, daraxt, qush, tosh** va b.

Biror soʻz shakl jihatdan oʻzak yoki qoʻshimchalarga boʻlinadigandek koʻrinishi mumkin. Lekin bu soʻz qismlarga ajratilganda har bir qismning oʻz ma'nosi boʻlmasa, bir oʻzakka teng boʻladi, ya'ni uni oʻzak va affiksial morfemaga ajratish toʻgʻri boʻlmaydi. Masalan, **quloqchin** soʻzidagi **quloq** mustaqil ma'no ifodalaydi. Lekin undagi **-chin** elementining ma'nosi haqida gapirish qiyin, shunga koʻra uni morfema deb boʻlmaydi. Demak, **quloqchin** soʻzi morfemalarga (ma'noli qismlarga) ajratilmaydi. Shuningdek, **tirik**, tiril soʻzlaridagi **-ik, -il** ning qoʻshimcha ekanligi bilinib turibdi. Lekin uning tir qismi biror ma'noga ega emas. Shu jihatdan bu soʻzlarni ham morfemalarga ajratib boʻlmaydi. **Kunda, chindan** soʻzlaridagi **kun** va **chin** qismi hozirgi kunda mustaqil ma'no ifodalaydi. **-da** va **-dan** qismlari kelishik ma'nosini ifodalovchi soʻz shaklini yasaydi. Lekin ular **kunda, chindan** soʻzi doirasida oʻz ma'no va vazifasini yoʻqotgan. Shu sababli bu soʻzlar ham morfemalarga ajratilmaydi.

Oʻzak ifodalaydigan ma'no soʻzga xos leksik ma'ning yadrosini tashkil etadi. Affiksning ma'nosi esa yordamchi, qoʻshimcha ma'no boʻlib, oʻzak ma'noga nisbatan ancha umumiyliigi Bilan farqlanadi. Masalan, **suvchi, sportchi, traktorchi, betonchi, dutorchi** soʻzlarida har bir oʻzak morfema (**suv, sport, beton, dutor**) aniq bir predmet nomini bildirgani holda, ularga qoʻshilgan **-chi** affiksi faqat umumiy ma'noni-bajaruvchi shaxs oti ma'nosini bildiradi.

Oʻzak morfema oʻz ma'nosidan uzoqlashib, umumiy xarakterdagi ma'no ifodalaydigan vositaga, ya'ni affiksial morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, **ishxona, choyxona, doʻxtirxona, bosmaxona** soʻzlaridagi **xona** elementi oʻz leksik ma'nosidan uzoqlashib, biror ish-faoliyat joyi ma'nosini bildiruvchi soʻz yasovchi vositaga aylangan. Demak, bunda **xona** elementi oʻzak morfemadan koʻra affiksial morfemaga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, **talabanoma, ruxsatnoma, taklifnoma, aybnoma** soʻzlaridagi **noma** elementi; **bogʻbon, saroybon, janggoh, ormgoh, oshxoʻr, gʻamxoʻr** soʻzlaridagi **bon, goh, xoʻr** elementlari ham aslida mustaqil ma'noli boʻlib, hozirda affkis holiga kelgan. (аффекоидлардир).

O`zakdosh so`zlar deb bir yasalgan turli ma'noni bildiruvchi yangi so`zlar nazarda tutiladi. Masalan, **gulchi, guldori, gulzor, gulli, gulsiz, guldori, gulla** kabi so`zlar turli so`z turkumiga oid yasovchi qo`shimchalar gul o`zagiga qo`shilib yasalgandir, ular turli ma'no ifodalaydi. Bu so`zlar uchun umumiylik faqat o`zagining bir xil ekanligidir. Lekin bir so`zga turli grammatik shakl hosil qiluvchi qo`shimchalar qo`shilsa ular o`zakdosh so`zlar deyilmaydi, aksincha bir so`zning turli grammatik ko`rinishi deb ataladi. Masalan, **gullar (grammatik ko`plik), gulning, gulni, gulga, gulda, guldori (kelishik shakli), gulim, guling, guli, gulimiz, gulingiz (egallik shakli).**

Negiz – o`zakka so`z yasovchi qo`shimcha qo`shilishi bilan negiz hosil bo`ladi. So`zga qo`shiluvchi grammatik qo`shimchalar negizga qo`shilaveradi. Masalan, gulzorlarimizning so`zining o`zagi gul so`zi bo`lsa, negizi gulzor qismi hisoblanadi, qolgan grammatik qo`shimchalar shu qismga qo`shilgan.

Til taraqqiyoti jarayonida, so`zning semantik va fonetik strukturasi bo`lgani kabi, uning morfema strukturasi xam turlicha o`zgarishlar bo`lib turadi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin.

1. Ikki o`zak morfema bir o`zak morfema xoliga keladi. **Bugun-bugun.**

2. Aslida o`zak morfemaga teng bulgan qism o`z mustaqilligini yo`qotib. Affiks bilan bir butun holda o`zak morfemaga aylanadi. Masalan, **yuksak, yuksal** so`zlaridagi **-k va -l** ning affiksall morfema ekani sezilib turibdi. Lekin hozirgi o`zbek tilida mustaqil qo`llanuchi **yuksa** leksemasi yo`q. Shu sababli yuksaklik va yuksaldi so`zlaridagi yuksak va yuksal bir butun holda o`zak morfema sanaladi. Aslida yuksa ning o`zi ham ikki morfemadan –yuk(“yuqori” ma'nosida) o`zak morfemadan va fe'l yasovchi **-sa** affiksall morfemadan iborat bo`lgan.

3. So`z tarkibida mustaqil ma'noli qism ajralib (ko`rinib) tursa-da, lekin unga qo`shilgan qism affiksga xos ma'no va vazifaga ega bo`lmaydi. Shu sababli bunday so`zlar ham morfemalarga ajratilmaydi: **biron (biror), bezor** kabilar.

4. So`z tarkibida yuz bergan fonetik o`zgarish natijasida o`zak morfema bilan affiksall morfema o`rtasidagi aloqa sezilarsiz holga keladi. Masalan, **qattiq** so`zi aslida **qot (qotmoq)** o`zagiga **-iq** affiksining qo`shilishidan yasalgan (qiyoslang: **yumshoq**). Lekin **qot** va **qattiq** so`zlaridagi **o va a** tovushining orttirilishi bu so`zning **qot** so`ziga aloqasini sezilarsiz darajaga keltirib qo`ygan. Natijada **qattiq** so`zi morfemalarga ajratilmaydiga bo`lib qolgan.

5. Biror yordamchi so`z yoki uning biror shakli affiksga aylanadi. Masalan, **boryapti, ishlayapti** shaklidagi **-yap** affiksi aslida **yot** ko`makchi fe'lining ravishdosh shaklidan kelib chiqqan: **-yotib// -yatip-yap**.

6. Aslida mustaqil morfema hisoblangan birdan ortiq affiks bir affiks holiga keladi. Masalan, **ukamniki, maktabniki** so`zlaridagi **-niki** affiksi tarixan mustaqil **-ning** va **-ki** affikslaridan iborat bo`lgan.

2.QO`SHIMCHALAR MA'NOSI VA BAJARADIGAN VAZIFASIGA KO`RA 3 XIL BO`LADI.

1. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar
2. Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar
3. Soʻz shakli xosil qiluvchi qoʻshimchalar.

1) Soʻz yasovchi qoʻshimchalar; oʻzakka yoki negizga qoʻshilib yangi lugʻaviy maʼnoli soʻz xosil qiladi. Masalan: gulla, soʻzla, boshla, sozla kabi soʻzlarda – la affiksi otlarga qoʻshilib feʼl yasagan; gulli, guldor, gulsiz kabilarda esa -li, -dor, -siz (affiksi) qoʻshimchalari otga qoʻshilib sifat yasagan.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida mustaqil soʻz turkumlaridan ot, sifat, feʼl, ravish, soʻz turkumlarida yasovchi, yasovchi qoʻshimchalar bor.

Bir soʻzga bir necha soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilishi mumkin; betinim, - oʻzak – tin + im = tinim – negiz + be – betinim.

Terimchi–ter–oʻzak–terim–negiz–terimchi soʻz yasovchi qoʻshimchalarning soʻz yasash darajasi bir xil emas. Shu xolatga koʻra ular uch xil boʻladi.

1) unumli (mahsuldor) qoʻshimchalar – juda koʻp miqdorda yangi soʻz yasaydi, hozirgi oʻzbek tilida yangi soʻzlar yaratishda faol ishtirok etadi; ot yasovchi – chi: ishchi, gulchi, sportchi.

Sifat yasovchi – li: gulli, aqlli, durli; feʼl yasovchi – la: ishla, gulla, oqla kabilar.

2) kam unum qoʻshimchalar unchalik koʻp boʻlmagan miqdorda soʻz yasaydi, hozirgi vaqtda yangi soʻz yaratishda ham kam ishtirok etadi. Masalan: ot yasovchi – dosh (musobaqadosh, sinfdosh, kursdosh), sifat yasovchi – ma (qovurma, chiyratma, terma) kabi.

3) unumsiz qoʻshimchalar: juda kam miqdorda yangi soʻz yaslashda qatnashadi, ular yordamida hozirgi kunda yangi soʻz yaratilmaydi. Masalan: ot yasovchi – gar (savdogar, zargar, daʼvogar); -kash (aravakash) sifat yasovchi –agʻon (chopagʻon, qopagʻon), - man (bilarman, qilarman), feʼl yasovchi – (a) r (oqarmoq, koʻkarmoq) affikslari.

2) Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar: (ayrim darsliklarda aloqa munosabat vositalari deyiladi). Bu qoʻshimchalar bir soʻzni ikkinchi soʻz bilan bogʻlab gap xosil qiladi. Yangi mustaqil soʻzlarni sintatik, aloqa, (munosabatga) kiritadi. Bular 3 xil boʻladi.

1. Kelishik qoʻshimchalari
2. Egalik qoʻshimchalari
3. Shaxs-son qoʻshimchalari

Ular gap xosil qiladi.

Dildora maktabdan keldi. Kutubxonaga Dildorani yubordim.

Soʻz birikmasi xosil qiladi;

Ukamning kitobi, institutdan kelmoq, kitobni oʻqimoq.

1. Kelishik qoʻshimchalari–turlovchi qoʻshimchalar deyiladi, ot va otlashgan soʻzlarga qoʻshilib, ularni boshqa soʻzlar bilan bogʻlaydi. Oʻzbek tilida quyidagi kelishiklar bor.

Bosh kelishik – kim? nima? qaer? Ona, kitob, qishloq.

qaratqich kelishigi- kimning? nimaning? qaerning? Onaning, kitobning, maktabning.

Tushum kelishigi-kimni? nimani? qaerni? Onamni, kitobni, qishloqni.

Joʻnalish kelishigi-kimga? nimaga? qaerga? Onamga, kitobga, qishloqqa.

O`rin payt kelishigi- kimda? nimada? qaerda? Onamda, kitoda, qishloqda.

Chiqish kelishigi-kimdan? nimadan? qaerdan? Onamdan, kitobdan, qishloqdan.

2) Egalik qo`shimchalari – otlarga qo`shilib narsa buyumlarning 3 shaxsdan biriga tegishli qarashli ekanini bildiradi.

Eslatma.

I. shaxs so`zlovchi (men, biz)

II. shaxs tinglovchi (sen, siz)

III. shaxs o`zga kishi (u , ular)

Egalik qo`shimchalari ham shaxsni bildiradi. Shuningdek sonni ham bildiradi.

Birlik

Ko`plik.

I. shaxs – kitobim, onam.

kitobimiz, onamiz.

II. shaxs – kitobing, onang.

kitobingiz, onangiz.

III. shaxs – kitobi, onasi.

kitoblari, onasi.

3) Shaxs son qo`shimchalari. Fe'lllarga qo`shilib bajarilgan ish xarakatning 3 shaxsdan biriga qarashli tegishli ekanini bildiradi.

Birlik

Ko`plik.

I. shaxs - o`qidi, o`qiyman

o`qidik, o`qiymiz.

II. shaxs – o`qiding, o`qiysan.

o`qidingiz, o`qiysiz.

III. shaxs – o`qidi, o`qi.

o`qidilar.

Demak gap yuzaga kelishi uchun albatta so`zlar bir – biriga sintaktik aloqaga kirishishi lozim. Ular so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni olsagina gap hosil qilar ekan.

So`z shakli yasovchi qo`shimchalar – (ayrim darsliklarda lug`aviy shakl yasovchilar deyiladi). Ular o`zakka qo`shilib yangi ma'nodagi so`zlar yasamaydi, so`zlarni bir – biriga bog`lamaydi, faqat so`zlarga qo`shimcha ma'no qirralari orttiradi. Bunday qo`shimchalar – ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so`z turkumlarida uchraydi. Masalan;

1) otlardagi ko`plik qo`shimchasi – lar: kitoblar, gullar, qizlar, talabalar, onamlar kabi. Otlardagi, kichraytirish, erkalash, qo`shimchalar- -gina, - choq, - loq, - jon, - xon, - oy, - bek, - cha, - chak: qizginam, qo`zichoq, qizaloq, Ilxomjon, kitobga, kelinchak.

2) Sifatlardagi daraja va ozaytirma, kuchaytirma sifat xosil qiluvchi qo`shimchalar: oqroq, oqish, ko`kintir, kichikkina.

3) Sonlardagi ma'no turlarini xosil qiluvchi qo`shimchalar: o`nta, o`ninchi, ikkov, uchala, ikkovlon, ikkovlashib, beshovlon, o`nlab, yuzlarcha, o`ntacha.

4) Olmoshlardagi – dir qo`shimchasi: kimdir, nimadir.

5) fe'l so`z turkumidagi quyidagi qo`shimchalar shakl hosil qiluvchi qo`shimchalardir.

- bo`lishsizlik qo`shimchasi – ma: borma, kelma,

- zamon qo`shimchalari – di, - yapti, - yotir, - moqda, - moqchi. O`qidi, o`qiyotir, o`qiyapti, o`qimoqda.

- Nisbat qo`shimchalari:

O`zlik nisbat – in, - il, - yuvindi.

Majxul nisbat – in, - il yuvildi.

Orttirma nisbat – t, - tir, - giz, - gaz o`qiydi, ichkizdi.

Birgalik nisbat – sh, - ish, - borishdi, kelishdi.

- mayl qo`shimchalari;
- Shart mayli – sa, borsa , kelsa.
- Buyruq istak mayli – o`qiyin, borgin, borsin.
- sifatdosh shakli qo`shimchalari: -gan, -ar, - jak. O`qigan, oqar, bo`lajak.
- ravishdosh shakli qo`shimchalari: -ib, -ay, -guncha, -gach, -gani. O`qib, o`qiy, o`qiguncha, o`qigach, o`qigani.
- fe'llardagi o`ziga xos harakat ma'nolarini ifodalovchi qo`shimchalar qo`shimchalar: sava – savala, tep – tepkila, kul – kulimsira, tort – tortqila,
- harakat nomi - ish, -uv, -moq: o`qish, o`quv, o`qimoq.
- ravishlardagi daraja qo`shimchasi – roq, gina: ozroq, ozgina, ko`proq, ko`pgina.
- Eslatma: Demak o`zak va qo`shimchalar birgalikda so`zning ma'noli qismlarini xosil qilar ekan. O`quvchilarimiz so`zida **o`qi + vchi + lar + imiz**; (4), maktablarimiz – **maktab + lar + imiz** (3), kitobimizning so`zida **kitob + imiz + ning** (3) kabi morfema ya'ni ma'noli qism bor.
- o`zbek tilida qo`shimchalarning so`zga qo`shilishi tartibi quydagicha; asos + so`z yasovchi qo`shimcha + shakl yasovchi qo`shimcha + so`z o`zgartiruvchi qo`shimcha.
- Masalan: gul + zor + lar + imiz + ning.
- O`zbek tilidagi ayrim so`zlarda go`yo qo`shimcha bordek tuyulsa ham bu so`zlar bugungi kunga kelib morfemalarga, ya'ni ma'noli qismlarga (o`zak va qo`shimchalarga) ajralmaydi. Chunki ularning o`zi yaxlit o`zakdir.
- Ipak, ichak, boshqoq so`zlaridagi – oq, -ak qo`shimchalari o`tmishda ingichka va kichkina ma'nolarini bildiruvchi so`zlar yasagan. Hozirda bu so`zlar ajralmas bir o`zak bo`lib qolgan: ertasi, kechasi so`zlari tarkibida –si 3 shaxs egalik qo`shimchasi bordek tuyulsa ham bugungi kunda bu so`zlar yaxlit ravish bo`lib qotib qolgan, ya'ni bu erda – si egalik qo`shimchasi hisoblanmaydi.
- Yuksak, yuksal, tirik, tiril, bugun, qatiq, biror, biron, bezor, siyosiy, maishiy, moddiy, milliy, chindan, kunda, qo`qqisdan, to`satdan, birdan, suyuq, quyuq, silliq, bo`g`iz, zarurat, po`stloq, quloqchin, ko`chmanchi, qoldiq, bosqich, shodiyona, shaxmat, qo`nalg`a, pishloq, sholcha, qizg`in, Chirkin, ko`rpacha** kabi, so`zlar bugungi kunda morfemalarga ajratilmaydi.

TOVUSH O`ZGARISHLARI.

O`zakka turli qo`shimchalar qo`shilganda ba'zan o`zak negizida ba'zan qo`shimchaning tarkibidatovush o`zgarishlari bo`ladi. Bu xodisalar asosan 3 xil bo`ladi.

1) TOVUSH ALMASHINUVI.

A) unli tovushlarda: son – sana, ong – angla, sayla – saylov, o`qi – o`quv, sovi – sovuq, tara – taroq, so`ra – so`roq.

B) undosh tovushlarda: elak – elash, kurak – kurash, quloq - qulog`i, bog` - boqqa.

2) TOVUSH TUSHISHI.

A) unli tovushlar: shahar – shahri, ikki – ikkov, o`yin – o`yna, ulug` - ulg`ay, etti – ettov.

B) undosh tovushlar: men – mening, sen – sening, past – pasay, sust – susay.

3) TOVUSH ORTTIRILISHI:

ko`rsatish olmoshlari u, bu, shularga – ga, - da, - dan, - day, - dek, - cha, qo`shimchalarini qo`shsak bir n tovushi orttiriladi. Unga, unda, undan, unday, undek.

«isi» so`ziga - q qo`shimchasini qo`shsak bir s tovushi orttiriladi: issiq.

O`zakka bir necha qo`shimchalar qo`shilganda birdan ortiq tovush o`zgarishlari yuz beradi;

Sanoqsiz: son + a – sana + q - sanoq + siz.

Buyrug`ingiz: buyur + ruq - buyruq + ingiz – buyrug`ingiz.

Sarg`ish: sariq + ish i unlisi tushib qolgan **q** undoshi g` ga aylangan.

3. AFFIKSAL MORFEMALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Qo'shimchalarning orasida ham xuddi so'zlardagidek omonimlik, sinonimlik, antonimlik, ko'p ma'nolilik hodisalari mavjud.

- shaklan bir xil bo'lib ma'nolari o'zaro bog'liq bo'lmagan qo'shimchalar omonim qo'shimchalar deyiladi. Qo'shimchalarda omonimiya xodisasi 2 xil yuz beradi.

1. Bir xil turdagi qo'shimchalar doirasidagi omonimlik:

so'z yasovchi qo'shimchalarning omonimligi:

turt+ki, tep+ki, ko'ch+ki. (ot yasovchi - ki)

ich+ki, kech+ki, ust+ki (sifat yasovchi - ki)

shakl yasovchilar omonimiyasi;

o'qi+sh, so'zla+sh, (xarakat nomi – sh)

yuv+ish, olib bor+ish (birgalik nisbat – ish)

so'z o'zgartiruvchilar omonimiyasi.

Ona+m, bizning o'quvchi+miz (egalik qo'shimchalari – m – miz)

O'qidi+m, biz o'quvchi+miz (shaxs son qo'shimchalari – m – miz).

2. Turli qo'shimchalar doirasidagi omonimlik:

yig'im, ter+im, bil+im (ot yasovchi – im)

kitob+im, qalam+im (egalik qo'shimchasi –im)

qaynat+ma sho'rva (sifat yasovchi – ma),

tort+ma (ot yasovchi–ma),

bor+ma, ayt+ma (fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi –ma).

- shaklan har xil bo'lib umumiy ma'nosi bir xil qo'shimchalar sinonim qo'shimchalar deyiladi. Qo'shimchalarning sinonimlik vazifasi bir xil bo'lgan qo'shimchalar doirasidagina bo'ladi.

So'z yasovchilarning sinonimligi: suv+li – ser+suv, ba+odob – odob+li, o'rin+siz – no+o'rin, savlat+dor – ba+savlat – savlat+li.

Shakl yasovchi qo'shimchalarning sinonimligi: e+dir – e+giz, ich+kir – ich+kiz, kel+yapti – kel+moqda – kela+yotir.

So'z o'zgartiruvchilarning sinonimligi: choydan iching- choyni iching, maktab yoniga to'plandik-maktab yonida to'plandik, yoshlikdan birga o'sganman-yoshlikda birga o'sganmiz.

- qarama qarshi ma'no bildiruvchi qo'shimchalar antonim qo'shimchalar deyiladi. Antonim qo'shimchalar tilimizda juda kam, asosan sifat va ravishlarda so'z yasovchi qo'shimchalarda uchraydi. Kuch+li – kuch+siz, odob+li – odob+siz, baraka+li – baraka+siz, nuqson+li – be+nuqson.

(V) – so'z yasovchi qo'shimchaga ishchilarimiz.

(q) – so'z o'zgartiruvchiga

(?) – shakl yasovchiga kitoblarning

- birdan ma'nolarni bildirib yasaydigan qo'shimchalar ma'noli (polisemantik) qo'shimchalar deyiladi. Bunday qo'shimchalarga –chilik kiradi. U quyidagi ma'nolarda ot yasaydi.

1. Sohani ifodalovchi ot: paxtachilik, chorvachilik.
2. Narsaning borliq xolatini: pishiqchilik, mo`lchilik.
3. Ishni: ulfatchilik, tirikchilik, o`rtoqchilik.

Ot yasovchi – chi, -lik, sifat yasovchi – li, -ma, (qisqartma so`z, ag`darma etik, qaynatma sho`rva, ivitma palov, yasama so`z). Fe'l yasovchi – la, ishla, gulla, shart maylining qo`shimchasi – sa kiradi: borsa, kelsa, o`qisa, yozsa.

Qo`shimchalarning tuzilish jixatdan turlari.

Qo`shimchalar tuzilishiga ko`ra 2 xil bo`ladi.

1. Sodda qo`shimchalar
 2. Murakkab qo`shimchalar.
- Sodda qo`shimchalar bitta qo`shimcha bir ma'noli qismni tashkil etadi. Masalan: paxta+kor, paxta+ning, gul+la, gul+chi, gul+li, gul+lar, kitob+cha, gul+lar+ning, ish+chi+lar+ning, xaydo+vchi+lik.
 - murakkab qo`shimchalar ikki yoki undan ortiq qo`shimchaning birikmasidan hosil bo`lgan va bitta qo`shimchaga aylanib ketgan xisoblanadi. Mo`l+chilik, gaz+lashtir+ish, do`st+larcha, odam+garchilik, o`n+tadan, yuz+larcha, kel+moqda, bor+moqchi, bor+a+digan.

Sodda qo`shimchalar.	Murakkab qo`shimchalar.
Ishchi, do`stlik, gulchilik.	Dexqonchilik.
Dardlash, yugurtir, kelish	Obodonlashtirish.
Do`stlar, kitoblar, kitobcha	Mardlarcha
Zargar, ishchi, do`stlik	Yog`ingarchilik.
Yuzta, o`nta, kitobdan.	Yuztadan, beshtadan.
O`qimoq, kitobda, menda.	O`qimoq, bormoqda
Yozmoq, gulchi, suvchi.	Kelmoqchi, yozmoqchi.

AYRIM QO`SHIMCHALAR HAQIDA MA'LUMOT.

so`z yasovchi –li va –lik qo`shimchalarini farqlamoq kerak. –li sifat yasaydi, –lik ot yasaydi. Bolali ayol (sifat), baxtli bolalik (ot), yoshli ko`zlar (sifat), yoshlik beboshlik (mavhum ot yasalgan). Ba'zan bu qo`shimchalarni og`zaki nutqda farqlamaslik hollari yuz beradi. Bu hol so`z ma'nolariga ta'sir etadi. Masalan, yoshlik ko`zlar emas – yoshli ko`zlar deyiladi.

–chi va –lik ot yasovchi qo`shimchalarini ot yasovchi murakkab –chilik murakkab qo`shimchadan farqlamoq kerak. Suvoq+chi+lik, o`r+oq+chi+lik kabi so`zlarda –chi va –lik alohida qo`shimcha hisoblanadi. Kosib+chilik, paxta+chilik kabi so`zlarda –chilik ajratilmaydi, yaxlit qo`shimcha hisoblanadi. Bu qo`shimchalarni farqlashda o`zakka –chi qismi qo`shilib ko`rish lozim. So`z agar ma'no anglatasa, -chi va -lik alohida qo`shimcha hisoblanadi, ma'no anglatmasa –chilik bir murakkab qo`shimcha hisoblanadi.

–fe'l yasovchi –la qo`shimchasini –illa, -irladan farqlamoq kerak. –la sodda qo`shimcha ish+la, oq+la, sekin+la, shivir+la, chuh+la;

–illa murakkab qo`shimcha bo`lib, taqlid so`zlardan fe'l yasaydi: viz+illa, dir+illa, chirq+illa, tar+illa, chirs+illa, bez+illamoq, -irla qo`shimchasi tap+ir+la,

duk+ir+la, dik+ir+la kabi soʻzlarda ikki qismga ajratiladi. –ir + la demak bu qoʻshimchalar sodda qoʻshimchalar hisoblanadi. Chunki tapir-tapir, dukir-dukir soʻzlari qoʻllanadi.

- 4) -day, -dek qoʻshimchalari oʻxshatish maʼnosini bildiruvchi sinonim qoʻshimchalardir. –day qoʻshimchasi soʻzlashuvda, –dek qoʻshimchasi kitobiy nutqda ishlatiladi. Oy desa oydek, kun desa kunday. U bir narsani izlagandek koʻrindi. Bu qoʻshimchalar yangi soʻz yasaydi. Muzdek suv. Qittay dori. Boshqa hollarda bu qoʻshimchalar shakl yasash uchun ishlatiladi. Bu kitoblarning menga koʻproqdek koʻrindi.
- 5) -niki qoʻshimchasi ot, olmosh, otlashgan soʻzga qoʻshilib qarashlilik maʼnosini bildiradi. Mana bu hovli bizniki. Bu kitoblar ukamniki. –niki qoʻshimchasi men, sen olmoshlariga qoʻshilganda bir –n tovushi tushib qoladi men- meniki, sen-seniki. –niki qoʻshimchasining maʼnosi egalik qoʻshimchasini olgan soʻzga sinonim boʻladi. Bu daftar meniki- bu mening daftarim. Bu qoʻshimchalarni olgan soʻz gapda kesim, ayrim hollarda toʻldiruvchi, hol vazifalarida keladi.
Birniki mingga, mingniki tumanga (ega), Mana bu kitoblar doʻstimniki (kesim), Biznikiga mehmonlar keldi (hol), Mening kitobim senikidan qiziqarli (toʻldiruvchi).

4. Koʻp maʼnoli qoʻshimchalar

Qoʻshimchalar	Misollar
-li	aql <u>li</u> (mavjudlik maʼn.), yogʻ <u>li</u> (ortiqlik maʼn.), oʻtirish <u>li</u> (moslik)
-ma	govur <u>ma</u> (harakat natijasi), bur <u>ma</u> (odatdagi xususiyat)
-la	moy <u>la</u> (ega holatlik), randa <u>la</u> (vosita), bol <u>la</u> (paydo qilish)
-chi	chorv <u>chi</u> (kasbga mansublik), boʻyoq <u>chi</u> (aniq sohaga tegishlilik),
-chilik	paxta <u>chilik</u> (soha), toʻkin <u>chilik</u> (mavjudlik), tirik <u>chilik</u> (holat),
-dor	ayb <u>dor</u> (mavjudlik maʼn.), boʻy <u>dor</u> (ortiqlik maʼn.)
no-	<u>no</u> umid (ega emaslik), <u>no</u> mard (qarama-qarshilik maʼn.)
be-	<u>be</u> gʻubor (yoʻqlik maʼn.), <u>be</u> gʻam (kamlik maʼn.)
-siz	asoss <u>siz</u> (ega emaslik maʼn.), madors <u>siz</u> (kamlik maʼn.)
-lik	ota <u>lik</u> (qarindoshlik), bol <u>lik</u> (holat), mudir <u>lik</u> (kasb, hunar)
-sa	Bers <u>sa</u> , eyman (shart); Qani oʻqishga kir <u>sa</u> (orzu)

5. Sinonim qoʻshimchalar

Qoʻshimchalar	Misollar	Qoʻshimcha-lar	Misollar
-dan/-ni	osh <u>dan</u> oling – osh <u>ni</u> oling	no-/siz	<u>no</u> oʻrin – oʻrins <u>siz</u>

-dan/-ga	eshik <u>dan</u> sig`madi – eshik <u>ka</u> sig`madi	-ona/- larcha	mard <u>ona</u> - mard <u>larcha</u>
-dan/-ning	ular <u>dan</u> biri - ular <u>ning</u> biri	-sa/-sira	suv <u>samoq</u> - suv <u>sira</u> moq
-ga/-ni	bunga tushunmadi-bu <u>ni</u> tushunmadi	-chi/-shunos	til <u>chi</u> - til <u>shunos</u>
-digan/-ar	ko`ra <u>digan</u> ko`z - ko`ra <u>ar</u> ko`z	-lab/-dan	sahar <u>lab</u> - sahar <u>dan</u>
don/-li	bilim <u>don</u> - bilim <u>li</u>	-(u)v/-(i)sh	o`qu <u>v</u> - o`q <u>ish</u>
ser-/li	<u>sersuv</u> -suv <u>li</u>	be-/siz	<u>bemaza</u> – maza <u>siz</u>
ba-/li	<u>bahaybat</u> - haybat <u>li</u>	-qir/-ag`on	chop <u>qir</u> - chop <u>ag`on</u>
-do`z/-chi	etik <u>do`z</u> - etik <u>chi</u>		
-yotir -moqda -yapti	kely <u>yapti</u> – kelay <u>yotir</u> – kel <u>moqda</u>	-imtir/-ish/--roq	oq <u>ish</u> – oq <u>imtir</u> - oq <u>roq</u>
-loq/-zor	o`t <u>loq</u> - o`t <u>zor</u>	-iz/-dir	tom <u>iz</u> - tom <u>dir</u>
-ish/-lar	kel <u>ish</u> di - keldi <u>lar</u>	-li/-dor	unum <u>li</u> - unum <u>dor</u>
-soz/-chi	kema <u>soz</u> - kema <u>chi</u>	-larcha/-chasiga	mard <u>larcha</u> - mard <u>chasiga</u>
lay/-ligicha	ho`l <u>lay</u> - ho`l <u>ligicha</u>		

6. Omonim qo`shimchalar

№	Qo`shim -chalar	Ot	Sifat	Fe'l	Ravish	YUklama Bog` -lovchi
1	-a	jizza <u>a</u> (s/ya)	ko`tara <u>a</u> (savdo)	Qona <u>a</u> (s/ya) bora <u>a</u> (sh/ya) bura <u>a</u> (sh/ya)	-	sen- <u>a</u>
2	-ay	-	-	kuchay <u>ay</u> (s/ya) boray <u>ay</u> (sh/ya)	-	-
3	-ak	g`ijj <u>ak</u> (s/ya)	qirmiz <u>ak</u> (s/ya)	-	-	-
4	-ar	-	-	ko`kar <u>ar</u> (s/ya) kelar <u>ar</u> (sh/ya)	-	-
5	-ga	bolaga <u>a</u> (s/o`)	-	surgamoq (sh/ya)	-	-
6	-gi	supur <u>gi</u> (s/ya)	yozi <u>gi</u> (s/ya)	Borgim (sh/ya)	-	-
7	-gina	qiz <u>gina</u> (sh/ya)	-	-	-	qizim <u>gina</u>
8	-da	uyda <u>a</u> (s/o`)	-	undamoq (s/ya)	tez <u>da</u> (sh/ya)	kel-di- <u>da</u>

9	-day	-	kaft <u>day</u> (s/ya)	-	o`q <u>day</u> (s/ya)	-
10	-dir	-	-	Sez <u>dir</u> (sh/ya)	-	Kelgand <u>dir</u>
11	-don	kul <u>don</u> (s/ya)	qadr <u>don</u> (s/ya)	-	-	-
12	-dor	chorva <u>dor</u>	pul <u>dor</u> (s/ya)	-	-	-
13	-i	oti (s/o`)	jannati (s/ya)	Tinchi (s/ya) to`zi (sh/ya)	-	-
14	-ik	ko`rik (s/ya)	egik (s/ya)	Birik (s/ya)	-	-
15	-il	-	-	egildi (o`zl.) ichildi (maj. nisb.)	-	-
16	-in	ekin (s/ya)	sog`in (sigir)	ko`rin (sh/ya)	oldin (s/ya)	-
17	-im	uyim (s/o`) bilim (s/ya)	ayrim (s/ya)	-	chekim (s/ya)	-
18	-ing	uying (s/o`)	-	Oching (s/o`)	-	-
19	-ingiz	uyingiz (s/o`)	-	ochingiz (s/o`)	-	-
20	-ir	-	-	Gapir (s/ya) o`chir (sh/ya)	-	-
21	-ish	-	ko`kish (sh/ya)	Yozish (sh/ya) olishdi (sh/ya)	-	-
22	-iq	chiziq (s/ya)	ochiq (s/ya)	yo`liq (s/ya) sinigmoq (sh/ya)	-	-
23	-y	-	-	qoraydi (s/ya) o`qiy (sh/ya)	-	-
24	-k	to`shak (s/ya)	chirik (s/ya)	Bordik (s/o`)	-	-
25	-ka	yo`lka (sh/ya) etikka (s/o`)	-	iska (s/ya) surka (sh/ya)	-	-
26	-kash	xaskash (s/ya)	noskash (s/ya)	-	-	-
27	-ki	tepki (s/ya)	kechki (s/ya)	-	-	demakki biladiki
28	-kin	epkin (s/ya)	keskin (s/ya)	to`kkin (sh/ya)	-	-
29	-kor	paxtakor	fusunkor	-	-	-

			(s/ya)			
30	-la	-	-	ish <u>la</u> (s/ya) quv <u>la</u> (sh/ya)	-	-
31	-lik	och <u>lik</u> (s/ya)	o`sh <u>lik</u> (s/ya)	-	-	-
32	-m	chidam (s/ya) ukam(s/o`)	-	Yozdim(s/o`)	-	-

I. O`ZBEK TILIDAGI QO`SHIMCHA TURLARI

1. So`z yasovchi qo`shimchalar

Ot yasovchi qo`shimchalar

Qo`shimcha	Misollar	Qo`shimcha	Misollar
Shaxs oti yasovchi qo`shimchalar			
-chi	suv <u>chi</u>	-do`z	etikdo`z
-dosh.	sinf <u>dosh</u>	-soz	Aravasoz
-kor	paxta <u>kor</u>	-xo`r	choyx <u>o`r</u>
-kar	misk <u>kar</u>		
-gar	zarg <u>gar</u>		
-gor	talab <u>gor</u> ,		
-kash	Arava <u>kash</u>	-go`y	Duogo`y
-dor	CHorva <u>dor</u>	-parast	Shaxsiyat <u>parast</u>
-bon	Saroy <u>bon</u>	-furush	meva <u>furush</u> ,
-boz	dor <u>boz</u> ,	-vachcha	Tog`av <u>achcha</u>
-paz	Osh <u>paz</u>	-(u)vchi	yoz <u>uvchi</u> , uchuvchi
-xon	Gazet <u>xon</u>	-(o)vchi	tinglov <u>chi</u> ,
-shunos	til <u>shunos</u> ,	ham-	<u>Hamsu</u> hbat
-sil	yo`q <u>sil</u> (arx.)		
Narsa-buyum oti yasovchi qo`shimchalar			
-gich	tishkovla <u>gich</u> ,	-gi	supur <u>gi</u> ,
-kich	ko`rsat <u>kich</u> , qis <u>qich</u> ,	-ki	tep <u>ki</u> ,
-qich	chizq <u>ich</u> .	-qi	tutat <u>qi</u> ,
-g`ich		-g`i	chalq <u>i</u> ,
		-g`u	tuyq <u>u</u>
-dak	yugur <u>dak</u> ,	-iq,	topshiri <u>q</u> ,
-doq -	qovur <u>doq</u> .	-ik	teshi <u>k</u> .
-ma	to`qi <u>ma</u> ,	-uq	uch <u>uq</u> , yutu <u>q</u> .
-m, -im	to`plam <u>m</u> , kiyi <u>m</u> ,	-q, -oq	taro <u>q</u> , o`ro <u>q</u>
-um	un <u>um</u> , uy+ <u>um</u> – uyum	-don	qalam <u>don</u> , tuz <u>don</u>
-t	qurt(quri+t),	-qin	to`lqin
-it	chiqi <u>t</u> ,	-qun	uchqun

-at	ko`chat,	-g`in	yong <u>q`in</u>
-ot	siz <u>ot</u> .	-g`un	yulg <u>un</u>
--in	Yig` <u>in</u>	-qoq	Bot <u>qoq</u>
-un	tug <u>un</u>	-kak	Esh <u>kak</u>
-on	to` <u>zon</u>	-gak	Il <u>qak</u> .
-k,-ak	kur <u>ak</u> , varr <u>ak</u> .	-(i) sh	quril <u>ish</u> , turlan <u>ish</u> .
-(u)v,	yo <u>zuv</u> ,	-ak	Qars <u>ak</u>
-(o v	saylo <u>v</u> .	-oq	Qaldir <u>oq</u>
-ildoq	shaq <u>ildoq</u> .	-a	sharshar <u>a</u> , jizz <u>a</u> .
-os	gulduro <u>s</u>	-(i)ndi	chir <u>indi</u> , cho` <u>kindi</u>
-poya	bedap <u>poya</u> ,		
	g`o`zap <u>poya</u> .		
machoq	bekin <u>machoq</u> ,	-chiq	yopin <u>chiq</u> , suyanc <u>chiq</u> .
-			
-chak	bur <u>chak</u> , kemir <u>chak</u> .	-iz	bo`g` <u>iz</u>
-miq	bulam <u>iq</u>	-noma	taklif <u>noma</u>
-mish	o`tm <u>ish</u> , qilm <u>ish</u> .		
-kilik	Ich <u>kilik</u>	-moq	Quy <u>moq</u>
-gilik	ko`r <u>gilik</u> .	-mak	chert <u>mak</u> (o`yin turi)
-cha	qizil <u>cha</u> , olach <u>a</u> .	-ka	yo`l <u>ka</u>
O`rin-joy otini yasovchi qo`shimchalar			
-zor	gul <u>zor</u> , paxta <u>zor</u> ,	-iston	O`zbek <u>iston</u> , gul <u>iston</u> .
-loq	o`tl <u>oq</u> , toshl <u>oq</u> .	-goh	sayl <u>goh</u> , o`ying <u>goh</u> .
-xona	oshx <u>ona</u> ,	-obod	YUnus <u>obod</u> , YAngi <u>obod</u> .
	choyx <u>ona</u> .		
Mavhum ot yasovchi qo`shimchalar			
-chilik	dehqon <u>chilik</u> ,	-lik	bolal <u>lik</u> ,
	tirik <u>chilik</u> .	-liq	borl <u>iq</u>
-ot- -	targ`ibot	-ch	sevin <u>ch</u> , quvon <u>ch</u>
at	madaniyat		
garchili	odam <u>garchilik</u> ,	-sh	o`qish
k	og`ayni <u>garchilik</u>	-ish	tuzil <u>ish</u>
-(u)v	undov <u>v</u> , uqu <u>v</u>	-i	Suyunchi <u>i</u>

Sifat yasovchi qo`shimchalar

Qo`shimcha	Misollar	Qo`shimcha	Misollar
1. Otdan sifat yasovchi qo`shimchalar			
-li	kuchl <u>i</u>	-lik	toshkentl <u>ik</u> (bola)
-siz	tuzs <u>iz</u>	-iy, -viy	tarbiyav <u>iy</u> soat, devori <u>iy</u> gazeta
-gi	bahorg <u>i</u> ishlar	-aki	jizz <u>aki</u> dahan <u>aki</u>
-ki	qishk <u>i</u> kiyim		og`z <u>aki</u>
-qi	pistoq <u>i</u>		

-yi	<u>havoyi</u>	-chan	ish <u>chan</u> bola
ser-	<u>ser</u> hosil	ba-	<u>bad</u> avlat
be-	<u>beq`ubor</u> , <u>bexabar</u>	-simon	shars <u>simon</u>
-dor	vafod <u>or</u>	-kor,-gar	isyon <u>kor</u> , ig`vog <u>ar</u>
-i	qishlo <u>qi</u>	-cha	arab <u>cha</u> (o`yin)
-namo	darvesh <u>namo</u>	-parvar	xalq <u>parvar</u> ,
-dek	muz <u>dek</u> (suv)	--lik, -liq	ko`ylak <u>lik</u> (chit), bolal <u>lik</u>
-day	jo`jabir <u>day</u> (jon)		(chog`lar)
-shumul	olam <u>shumul</u> ,	-mand	kasal <u>mand</u>
-don	gap <u>don</u> , bilim <u>don</u>	-kash	dilk <u>kash</u> , hazil <u>kash</u>
-bop	palov <u>bop</u> , qish <u>bop</u>	xush-	<u>xushfe`l</u> , <u>xush</u> havo
-in	erk <u>in</u> , otash <u>in</u>	bar-	<u>bar</u> hayot
-parast	mansab <u>parast</u> , maishat <u>parast</u>	-vor	devona <u>vor</u> , <u>afsona</u> vor
-chil	xalq <u>chil</u> , iz <u>chil</u> .	bad-	<u>bad</u> baxt, <u>bad</u> nafs
-i	jannati <u>i</u> (kampir)	-loq	baqa <u>loq</u>
-kor	fusun <u>kor</u> (husn)	-kash	zahmat <u>kash</u> (odam)
-chi	vahima <u>chi</u> (odam)	-von	zo`ra <u>von</u> (kishi)
-qa:	loy <u>qa</u> (suv)	-omuz	hazil <u>omuz</u> (gap)
-xo`r	g`amxo` <u>r</u> (odam)	-soz	soat <u>soz</u> (usta)
Fe`ldan sifat yasovchi qo`shimchalar			
-gir	sez <u>gir</u> ,	-kun	tush <u>kun</u>
-g`ir	olg` <u>ir</u>	-qin	jo`sh <u>qin</u>
-kir	o`tk <u>ir</u> ,	-g`in	ozg` <u>in</u>
-qir	top <u>qir</u> ,	-g`un	turg` <u>un</u>
-qur	uch <u>qur</u>	-qun	tut <u>qun</u>
-choq	Maqtan <u>choq</u>	-k	chirik
-chak	Kuyun <u>chak</u>	-ik	teshik
-chiq	qizg`an <u>chiq</u>	-uk	tuz <u>uk</u>
		-ak	g`alvir <u>ak</u>
-q	ili <u>q</u>	-qoq	tirish <u>qoq</u> toyg` <u>oq</u>
-uq	buz <u>uq</u>	-g`oq	
-iq	sini <u>q</u>		
-qi	sayro <u>qi</u> qush	-oq	qocho <u>q</u>
-ag`on	bilag` <u>on</u> , chopag` <u>on</u>	-mon	bilar <u>mon</u> ,
-ma	bur <u>ma</u> ko`ylak	-(a)rli	etar <u>li</u> , zerika <u>li</u>
-ch	tin <u>ch</u> , jirkanch	-g`ich	yulg` <u>ich</u> (odam)
-ong`ich	tepong` <u>ich</u> , suzong` <u>ich</u>	-ovuch	hurko <u>ovuch</u> , isko <u>ovuch</u>

-mas	o` <u>mas</u> (pichoq)	-(i)ndi	asra <u>ndi</u> (bola)
-a	ko`tar <u>a</u> (savdo)	-msiq	qari <u>msiq</u> , ach <u>imsiq</u>
3. Sifat, ravish, taqlid so`zlardan sifat yasovchi qo`shimchalar			
-gi	kecha <u>gi</u> , dastlab <u>ki</u>	no-	<u>noma</u> 'lum
-lom	sog` <u>lom</u>	-ildoq	bij <u>ildoq</u>

Fe'l yasovchi qo`shimchalar

Qo`shimcha	Misollar	Qo`shimcha	Misollar
-la	ish <u>la</u> , oql <u>la</u> , sekin <u>lamoq</u> , shivir <u>la</u> , chuh <u>lamoq</u> , sen <u>lamoq</u> ,	-lan -lash	faxr <u>landi</u> , ikki <u>landi</u> , ko`mak <u>lashdi</u> , suhbat <u>lashdi</u> .
-illa	chir <u>qilla</u>	-ira	yarq <u>iradi</u> ,
-a	tun <u>a</u> , bo`sh <u>a</u> , o`yin+a-o`yn <u>a</u> .	-sira -sa	sens <u>ira</u> suvs <u>a</u>
-(a)r	qisqar <u>r</u> , ko`k <u>ar</u>	-(a)y	qoray <u>y</u> , kuchay <u>y</u> ,
-(i)k	birik <u>moq</u> yo`liq <u>moq</u>	-(i,o) t	yo`qot <u>t</u> , to`lat <u>t</u> , berkit <u>t</u>
-(i)q			
-i	boy <u>i</u> , tinchi <u>i</u>	-ir	gapir <u>i</u> , tupir <u>i</u> .

Ravish yasovchi qo`shimchalar

Qo`shimcha	Misollar	Qo`shimcha	Misollar
-cha	qisqacha <u>cha</u> , o`zicha <u>cha</u> , boshqacha <u>cha</u> , eskicha <u>cha</u>	-larcha	qardosh <u>larcha</u> , o`rtoql <u>larcha</u> .
-dek	o`q <u>dek</u>	-siga	tikka <u>siga</u> , yalpis <u>siga</u> .
-day	qush <u>day</u>		
-ligicha	xomliq <u>icha</u> , tirikliq <u>icha</u> , butunliq <u>icha</u> , ho`lli <u>qicha</u>	-chasiga	yangich <u>hasiga</u> , toshkent <u>chasiga</u> , dehqon <u>chasiga</u>
-lab	ertalab <u>lab</u> , ko`plab <u>lab</u> .	-ona	do`st <u>ona</u> ,
-an	majburan <u>an</u>	-gacha	kechgacha <u>gacha</u> ,
-simon	hazil <u>simon</u> .	-namo	uyalgannamo <u>namo</u>
-lay(in)	butunlay <u>lay</u> , tiriklay <u>layin</u> .	-siz, be-	to`xtovs <u>siz</u> , beixtiyor.
-incha	ko`pincha <u>incha</u> , aksincha <u>incha</u> .	-chang	ko`ylakchang <u>chang</u>
-in	oldin <u>in</u>		

2. So`z o`zgartuvchi qo`shimchalar

Otlardagi kelishik qo`shimchalari

№	Kelishik nomi	qo`shimchasi	savollari
---	---------------	--------------	-----------

1.	Bosh kelishik	-	kim? nima?
2.	Qaratqich kelishik	-ning , -n	kimning? nimaning
3.	Tushum kelishik	-ni, -n, -i	kimni? nimani? kimimi?
4.	Jo`nalish kelishik	-ga, -ka,-qa, -na,- a	kimga? nimaga?
5.	O`rin-payt kelishik	-da	kimda? nimada?
6.	CHiqish kelishik	-dan	kimdan? nimadan?

Otlardagi egalik qo`shimchalari

Shaxs	Birlik	Ko`plik
1-shaxs	<u>dalam</u> , kitob <u>im</u>	<u>dalamiz</u> , kitob <u>imiz</u>
2-shaxs	<u>dalang</u> , kitob <u>ing</u>	<u>dalangiz</u> , kitob <u>ingiz</u>
3-shaxs	<u>dalasi</u> , kitobi <u>i</u>	<u>dalalari</u> , kitob <u>lari</u>

Fe'llardagi shaxs-son qo`shimchalari

shaxs	birlik	ko`plik
1-shaxs	yoz <u>dim</u> , yoz <u>aman</u> , yoz <u>ay(in)</u>	yoz <u>dik</u> , yoz <u>amiz</u> , yoz <u>aylik</u>
2-shaxs	yoz <u>ding</u> , yoz <u>asan</u> , yoz <u>(qin)</u>	yoz <u>dingiz</u> , yoz <u>asiz</u> , yoz <u>inq(iz)</u>
3-shaxs	yozdi, yozadi, yoz <u>sin</u>	yozdi(<u>lar</u>), yozadi(<u>lar</u>), yoz <u>sin(lar)</u>

3. So`z shakli yasovchi qo`shimchalar

№	Qo`shimcha	Misollar	Xususiyati
1.	-a I	bur <u>a</u> moq, chop <u>a</u> -chop, qasir <u>a</u> -qasir.	Ma'noni kuchaytiradi
2.	-a II	yugur <u>a</u> -yugur <u>a</u> , ol <u>a</u> boshladi	ravishdosh shaklini yasaydi
3.	-ajak	kel <u>a</u> jak, bor <u>a</u> jak	sifatdosh shaklini yasaydi
4.	-ala	uch <u>a</u> la, o`n <u>a</u> la.	jamlovchi son shaklini yasaydi
5.	-alak	do`ng <u>a</u> lak,	kichraytirish ma'nosini hosil qiladi
6.	alla-	<u>all</u> akim, <u>all</u> anima.	gumon olmoshini yasaydi
7.	-asi	kel <u>a</u> si (yil).	sifatdosh shaklini yasaydi
8.	-b yoki -ib	o`qib <u>i</u> , borib <u>i</u> .	ravishdosh shaklini yasaydi
9.	-gan, -kan -qan	bor <u>gan</u> , tek <u>kan</u> , chiq <u>qan</u> .	fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi shaklini hosil qiladi
10.	-gaz, -kaz, -	ko`r <u>gaz</u> , o`tk <u>az</u> , tut <u>qaz</u> , yot <u>qiz</u> .	orttirma daraja shaklini yasaydi

	qaz,-giz, -qiz -gani	<i>o`qigani, ekkani, tuqqani.</i>	kelasi zamon maqsad ma'nosidagi ravishdosh shaklini hosil qiladi:
11.	-kani, -qani		holat yoki payt ravishdosh- larini hosil qiladi
12.	-gancha	<i>yugurgancha ketdi, shu ketgancha qaytmadi</i>	payt yoki sabab ravishdoshlarini yasash uchun xizmat qiladi
13.	-gach -kach, -qach	<i>U kelgach, biz ketdik (payt) . U kelmagach, biz bordik (sabab)</i>	egalik qo`shimchalari bilan birgalikda xohish, istak ma'nosini ifodalaydi
14.	-gi I	<i>borgim keldi.</i>	fe'lga qo`shilib, takroriylik, davomlilik ma'nolarini ifodalaydi
15.	-gi (-g`i) II	<i>yugurgilamoq, to`zq`imoq.</i>	fe'llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
16.	-giz, -iz, -kaz, qaz, - g`az, - g`iz	<i>yurgizmoq, o`tkazmoq, yutqizmoq, turg`azmoq, oqizmoq.</i>	
17.	-gil, -gin	<i>borgin, kelgil.</i>	fe'llardagi buyruq-istak maylini hosil qiladi
18.	-gina -kina -qina	<i>Qizginam balandgina, oppoqqina tuzukkina</i>	a) otlardagi erkalash- kichraytirish, achinish ma'nosini ifodalaydi b) sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
19.	-guncha -kuncha -quncha	<i>kelguncha, tekkuncha, chiqquncha.</i>	payt ravishdoshlarini hosil qiladi:
20.	-gur	<i>qurmagur.</i>	fe'llardagi istak ma'nosini ifodalaydi
21.	-gusi (- g`usi)	<i>borgusi, bo`lg`usi.</i>	eskirgan qo`shimcha bo`lib, kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
22.	-di	<i>yozdi.</i>	yaqin o`tgan zamon fe'lini hosil qiladi
23.	-dir I	<i>Kitob bilim manbaidir.</i>	kesimlik qo`shimchasi, ya'ni ot-kesimni ega bilan bog`lovchi vosita (bog`lamaning bir turi)
24.	-dir II	<i>kimdir, nimadir.</i>	gumon olmoshini hosil qiladi:
25.	-dir III yoki -tir	<i>yozdir sezdir.,</i>	orttirma daraja hosil qiluvchi qo`shimcha:

26.	-digan	<i>Kel<u>adi</u>gan</i>	kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
27.	-yotgan	<i>Ko`<u>rayot</u>gan</i>	sifatdosh shaklini hosil qiladi
28.	-yotir	<i>bor<u>ayotir</u>.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
29.	-jon	<i>Karim<u>jon</u></i>	otlardagi hurmat ma'nosini hosil qiladi
30.	-i	<i>to`z<u>i</u>moq.</i>	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
31.	-b (-ib)	<i>bor<u>i</u>b, o`q<u>i</u>b</i>	holat ravishdoshlarini hosil qiladi
32.	-imtir yoki -mtir	<i>ko`k<u>imtir</u>, qora<u>mtir</u></i>	sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
33.	-in I (yoki -n)	<i>kiy<u>in</u>moq (o`zlik), olin<u>in</u>moq</i> (majhul)	o`zlik yoki majhul nisbat yasovchi qo'shimcha
34.	-in II	<i>boray<u>in</u>.</i>	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
35.	-inchi yoki - nchi	<i>uch<u>in</u>chi, olt<u>in</u>chi</i>	hisoblanadi tartib son yasovchi
36.	-ir	<i>tosh<u>ir</u>moq.</i>	qo'shimcha fe'llardagi orttirma nisbat
37.	-ish yoki -sh I	<i>bor<u>ish</u>, o`q<u>ish</u></i>	qo'shimchasi fe'llarning harakat nomi
38.	-ish yoki -sh II	<i>yoz<u>ish</u>di, to`q<u>ish</u>yapti</i>	shaklini yasovchi qo'shimcha fe'lning birgalik nisbat
39.	-ish III	<i>Ko`k<u>ish</u></i>	qo'shimchasi: sifatlardagi ozaytirma daraja
40.	-ish IV	<i>to`l<u>ish</u>di</i>	hosil qiluvchi qo'shimcha
41.	-iq	<i>oshi<u>q</u>moq, toli<u>q</u>moq</i>	Kuchsiz harakatni ifodalaydi fe'lning o`zlik nisbatini hosil
42.	-y I	<i>o`q<u>i</u>y boshladi.</i>	qiluvchi qo'shimcha: ravishdosh hosil qiluvchi
43.	-y yoki - ay II	<i>to`q<u>i</u>y, boray<u>ay</u>, kelay<u>ay</u>.</i>	qo'shimcha fe'lning buyruq-istak mayli
44.	-ka	<i>surk<u>a</u>moq,</i>	shaklini yasaydi fe'lning kuchaytirma shaklini
45.	-l yoki -il	<i>Ishga qattiq ber<u>il</u>di (o`zl. nisb.)</i> <i>Navbat ber<u>il</u>di (maj. nisbat).</i>	hosil qiladi fe'lning o`zlik yoki majhul
46.	-la	<i>quv<u>l</u>amoq, sava<u>l</u>amoq</i>	darajasini hosil qiladi fe'llarning kuchaytirish
47.	-lar I	<i>Uylar</i>	shaklini yasaydi
48.	lar II	<i>onam<u>l</u>ar.</i>	ko`plik ma'nosini hosil qiladi hurmat ma'nosini hosil qiladi

49.	-lik	<i>aytmoqlik.</i>	harakat nomiga qo`shilib, ma`noni kuchaytiradi
50.	loq yoki -aloq	<i>qizaloq, bo`taloq.</i>	kichraytirish va erkalash
51.	-ma	<i>yurma, kelma.</i>	ma`nosini hosil qiladi
52.	-mish	<i>kelmish, olmish.</i>	fe`lning bo`lishsiz shaklini hosil qiladi
53.	-moq	<i>bormoq, qolmoq</i>	eskirgan shakl bo`lib, o`tgan
54.	-moqda	<i>kelmoqda, yozmoqda.</i>	zamon sifatdoshini hosil qilgan
55.	-moqchi	<i>o`qimoqchi.</i>	harakat nomini hosil qiladi
56.	-niki	<i>kitobniki, meniki.</i>	hozirgi zamon davom fe`lini hosil qiladi
57.	-ov	<i>ikkov, uchov.</i>	kelasi zamon maqsad fe`llarini yasaydi
58.	-ovlan	<i>beshovlan.</i>	qarashlilik shaklini hosil qiladi
59.	-oy	<i>Barchinoy, Hulkaroy</i>	jamlovchi son hosil qiluvchi qo`shimcha
60.	-on	<i>boribon, kelibon</i>	xuddi shunday jamlovchi sonlarni yasaydi
61.	-roq	<i>kattaroq, oqroq</i>	ayol ismlariga qo`shiladi va erkalash-hurmatlash
62.	-r yoki - ar	<i>-: borar, o`qir.</i>	ma`nolarin ifodalaydi
63.	-sa	<i>- borsa.</i>	eskirgan qo`shimcha bo`lib, ravishdosh shaklini hosil qilgan
64.	-sin	<i>olsin.</i>	sifatlarning qiyosiy daraja shaklini hosil qiladi
65.	-t -	<i>o`qit.</i>	kelasi zamon sifatdoshini yasaydi
66.	-ta	<i>: beshta, o`nta.</i>	fe`llardagi shart mayli shaklini hosil qiladi:
67.	-tacha	<i>beshtacha, o`ntacha.</i>	fe`llardagi buyruq-istak maylini yasaydi
68.	-uv	<i>boruv, keluv.</i>	fe`llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
69.	-xon	<i>Karimaxon.</i>	dona son shaklini hosil qiladi
70.	-cha	<i>qushcha, kitobcha.</i>	chama son shaklini hosil qiladi
			fe`lning harakat nomi shaklini hosil qiladi
			odam ismlariga qo`shilib, hurmat ma`nosini hosil qiladi
			otlardagi kichraytirish- erkalash ma`nosini

71.	-chak	<i>kelin<u>chak</u>, tugun<u>chak</u>.</i>	ifodalaydi: otlardagi kichraytirish ma'nosini ifodalaydi
72.	-choq	<i>toy<u>choq</u>, qo`zi<u>choq</u>.</i>	otlardagi kichraytirish- erkalash ma'nosini ifodalaydi
73.	-yap	<i>ket<u>yap</u>man.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi